

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHOYZAKOVA HILOLA YUSUF QIZI**

**BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING IJODIY INTELLEKTUAL  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY  
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent –2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of  
Philosophy (PhD) in pedagogical sciences**

**Shoyzakova Hilola Yusuf qizi**

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini  
rivojlantirishning dasturiy ta'minotini  
takomillashtirish.....3

**Шойзакова Хилола Юсуф кизи**

Совершенствование программного обеспечения развития творческих  
интеллектуальных компетенций будущих учителей  
физики.....23

**Shoizakova Hilola Yusuf kizi**

Improvement of software for the development of creative intellectual  
competencies of future physics teachers.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHOYZAKOVA HILOLA YUSUF QIZI**

**BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING IJODIY INTELLEKTUAL  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY  
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent –2025**

**Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5259 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi**

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibayeva Guljahan Ermekbayevna**

pedagogika fanlari doktori (DSc) professor

**Xujanov Erkin Berdiyevich,**

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetidaning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dosent

**M.E.Mamarajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalar ta'lim jarayoniga joriy etilmoqda. Xalqaro tajribada fizika ta'limida simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali talabalarning individual qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, bo'lajak fizika o'qituvchilarining analitik tafakkurini rivojlantirish va ilmiy fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim texnologiyalari va modellarini takomillashtirish uzoq muddatli kuzatuvlarga asoslangan yondashuvlar hayotda uchraydigan real muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida modellashtirish va virtual muhitda loyihalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda fizika ta'limida virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, sun'iy intellekt platformalari va mobil ilovalardan samarali foydalanish orqali talabalarning shaxsiy qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim muhiti yaratilishi fizika o'qitish metodlarini takomillashtirish, tabiat qonunlarini modellashtirish, laboratoriya va amaliyotda tajribalar o'tkazish, yangi hodisalarni kashf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmni hayotga tatbiq etish, nanofizika va nanotexnologiyalardan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan, mustaqil fikrlovchi va yangilik yarata oladigan o'qituvchilarni tayyorlash — eng asosiy maqsadimizdir"<sup>1</sup> degan ustuvor vazifalar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur islohotlar natijasida talabalar ijodiy fikrlash, analitik tahlil qilish va zamonaviy dasturiy vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizimlar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, shuningdek, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1 “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda fizika fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish masalalari P.Jalolova, M.Jo‘rayev, X.Jo‘rayev, M.Jumaniyozova, J.Qahhorov, M.Qurbonov, G.Karlbaeva, Yu.Mahmudov, X.Mahmudova, B.Mirzaxmedov, Q.Nasriddinov, B.Nurullaev, O‘.Sultonova, Q.Tursunmetov, J.Usarov, S.Suyarovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Fizika ta‘limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari B. Abdullayeva, A.Abdudodirov, U.Begimqulov, I.Bilolov, R.G.Isyanov, M.E.Mamarajabov, N. Taylaqovlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan.

MDH davlatlarida fizika ta‘limi A.Usova, N.Gomulina, S.Kamenetskiy, I.Nurminskiy, V.Razumovskiylarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Ta‘lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari K.Angelovskiy, V.P.Bespalko, I. M.Bogdanova, E.Garipov, O.S.Grebenyuk, T.B.Grebenyuk, M.V.Klarin, V.A.Slastenin, V.I.Slobodchikov, L.S.Podymovalarning ishlanmalarida asoslangan.

Xorijiy davlatlarda fizika ta‘limini keng joriy etishning ahamiyati Darlington F., Freeman I., Feynman R., Halliday D., Kettering Ch., Crowell B., Lewin W., Raymond A., Shepherd M., Singh M., Thompson J., Valeska J. D. hamda Yang H. tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqot mavzusining oliy ta‘lim muassasalari ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida, “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, elektron ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish asosida bajarilgan (2022–2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni dasturiy ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

dasturiy ta‘minot vositasida bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

dasturiy ta‘minot vositasida bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini samaradorligini aniqlash;

**Tadqiqot obyekti Tadqiqot obyekti.** Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida dasturiy ta'minotni takomillashtirish hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari Guliston davlat universiteti, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti hamda Qo'qon davlat pedagogika institutida 318 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi.

**Tadqiqot predmeti.** Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishga oid shakl, metod va vositalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishi, anketa so'rovnomasi, test, suhbat, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, uning natijalarini taqqoslash, analogiya va umumlashtirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari elektron resurslarning ergonomik-metodik va maxsus talablarini bajarishga ustuvorlik berish, talabalarning bilim olishiga ijodiy yondashuvlarini rag'batlantiruvchi simulyasion muhit yaratish, dasturlashtirilgan resurslarni virtual borliqda moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish modeli xalqaro tajribalarga ko'ra elektron didaktik vositalar funksiyalarini didaktik tamoyillarga uyg'unlashtirish hamda eksperimental ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga maqbul integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi "Discussion", "Heuristic", "Discovery learning" va "Case study" obrazi va tasviriy intellektual tasavvurlarini va elektron talim resurslarini rivojlantiruvchi metodlarini virtual ta'lim muhitida foydalanishning amaliy natijadorligini oshirish traektoriyasiga intensiv integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida eksperimental ta'lim mazmunini oshirishga qaratilgan "Collaborative Learning", "Inquiry Based Learning" metodlariga ustuvorlik berish hamda "Gamification Method" va "Reward System" metodlariga ko'ra talabalarni ijodiy faoliyatga rag'batlantirish va talabalarning ijodiy intellektual kompetensiyalarini diagnostik rivojlanishini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minotni takomillashtirish bo'yicha metodika ishlab chiqildi hamda u o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilindi. Ushbu metodik yondashuv o'qituvchilarda nazariy bilim bilan birga amaliy, tahliliy va kreativ yondashuvni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot doirasida "Molekulyar fizika fanidan amaliy mashg'ulotlar" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi. Qo'llanma zamonaviy metodik yondashuvlar asosida

tuzilgan bo‘lib, unda amaliy topshiriqlar, nazorat savollari, modellashtirishga oid tavsiyalar va mustaqil tahlilga yo‘naltirilgan vazifalar tizimlashtirilgan.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari uchun [www.fizika.resurse.uz](http://www.fizika.resurse.uz) domenida yaratilgan elektron platformada fizika fanining barcha bo‘limlari bo‘yicha zaruriy o‘quv-uslubiy materiallar jamlangan bo‘lib, u talabalarning ijodiy-intellektual kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, qo‘llanilgan metod, vosita va usullarni qo‘llashda olimlarning ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlariga hamda amaliyotchi-o‘qituvchilarning tajribasiga asoslanilganligi, tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligining Styudent-Fisher kriteriyasi asosida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u fizika fanini o‘quv dasturlari bilan ta‘minlash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Shuningdek, fizika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy ta‘minotlardan foydalanishning pedagogik va psixologik omillari aniqlanadi. Ushbu ishlab chiqilgan yondashuvlar ta‘lim jarayonida o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion ta‘lim usullari hamda interaktiv o‘qitish metodlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy-metodik takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarini dasturiy vositalar yordamida interaktiv ta‘lim resurslarini ishlab chiqishga o‘rgatish usullarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari elektron resurslarning ergonomik-metodik va maxsus talablarini bajarishga ustuvorlik berish, talabalarning bilim olishiga ijodiy yondashuvlarini rag‘batlantiruvchi simulyasion muhit yaratish, dasturlashtirilgan resurslarni virtual borliqda moslashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar “Molekulyar fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar” o‘quv qo‘llanmasiga kiritildi (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 23-iyundagi 11-05-4036/04 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu yo‘nalishda o‘qituvchilar uchun tayyorgarlik imkoniyatlari oshirilgan.

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish modeli xalqaro tajribalarga ko‘ra elektron didaktik vositalar funksiyalarini didaktik tamoyillarga uyg‘unlashtirish hamda eksperimental ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga maqbul integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Molekulyar fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar” o‘quv qo‘llanmasiga kiritildi (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 23-iyundagi 11-05-4036/04 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni boyitilgan.

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi “Discussion”, “Heuristic”, “Discovery learning” va “Case

study” obrazi va tasviriy intellektual tasavvurlarini va electron talim resurslarini rivojlantiruvchi metodlarini virtual ta’lim muhitida foydalanishning amaliy natijadorligini oshirish traektoriyasiga intensiv integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Molekulyar fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar” o‘quv qo‘llanmasiga kiritildi (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 23-iyundagi 11-05-4036/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy-didaktik ta’minoti rivojlangan.

bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida eksperimental ta’lim mazmunini oshirishga qaratilgan “Collaborative Learning”, “Inquiry Based Learning” metodlariga ustuvorlik berish hamda “Gamification Method” va “Reward System” metodlariga ko‘ra talabalarni ijodiy faoliyatga rag‘batlantirish va talabalarning ijodiy intellektual kompetensiyalarini diagnostik rivojlanishini aniqlash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Molekulyar fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar” o‘quv qo‘llanmasiga kiritildi (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 23-iyundagi 11-05-4036/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta’minotini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha umumiy 12 ta ilmiy ish chop etildi, shu jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini nashr qilish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy nashrda e’lon qilindi.

**Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta asosiy bob, xulosalar va takliflar, adabiyotlar ro‘yxati va qo‘shimchalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 166 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida** raqamli ta’lim texnologiyalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, zamonaviy dasturiy ta’minot vositalaridan foydalanishning o‘rni va ahamiyati,

shuningdek bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy muhitlar asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan.

Ta'lim oluvchilarning fanlarni chuqur o'zlashtirishi, amaliyotga yo'naltirilgan bilimlarni shakllantirishi, ilmiy-texnikaviy natijadorlikka erishishi zamon talablariga javob beruvchi, xalqaro standartlarga asoslangan innovatsion ta'lim xizmatlari bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayon esa, o'z navbatida, raqamli ta'limni kompleks tashkil etishni talab etadi. Fizika fanini o'qitish jarayonida raqamli vositalardan keng foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat fanni tushunish, balki uni ilg'or metodlar orqali o'rgatish kompetensiyasini shakllantiradi.

Bugungi kunda raqamli ta'limni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali bu soha izchil qo'llab-quvvatlanmoqda. Raqamli ta'lim ijtimoiy hayotda jadal rivojlanayotgan tizimlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish, axborot resurslariga keng imkoniyatlar yaratish orqali o'quvchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Ayniqsa, fizika fanini zamonaviy dasturiy ta'minotlar — virtual laboratoriyalar, modellashtirish muhitlari, interaktiv simulyatorlar orqali o'qitish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, mustaqil tahlil qilish va yangilik yaratishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Jumladan, G. Saytimbetovanning tadqiqotlarida nofizik yo'nalishlarda fizika fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari chuqur tahlil qilingan. Uning ishida ta'limda zamonaviy innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilim faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy-intellektual salohiyatini shakllantirishga qaratilgan metodik yechimlar asoslab berilgan. Bu yondashuvlar, ayniqsa, fizika fanini raqamli muhitda o'qitishda zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalanishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

U.Sh.Begimqulov axborot-ta'lim muhitining o'quv jarayoniga integratsiyasi orqali o'quvchilarning bilim olish faolligi va fanlararo bog'liqlikning chuqurlashuvi kuzatilishini ta'kidlaydi.

Tahlillarga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli ta'lim muhiti — bu foydalanuvchiga yo'naltirilgan, samaradorlik va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olgan pedagogik tizimdir. Raqamli ta'limning zamirida o'quv materiallarini vizual, interaktiv va funksional dasturiy ta'minotlar orqali o'zlashtirish jarayonini soddalashtirish yotadi.

Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda zamonaviy dasturiy vositalarning roli beqiyos bo'lib, ular ta'lim mazmunini boyitish, individual yondashuvni ta'minlash va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish imkonini beradi. Raqamli ta'limda axborot bazalarini yaratish, foydalanuvchi interfeyslarini shakllantirish, o'quv axborotlarini yetkazib berish va nazorat qilish kabi vazifalarni hal etadigan dasturiy ta'minot muhim omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, fizika fanining abstrakt va murakkab tushunchalarini o'zlashtirishda bunday ta'minotlar o'qituvchining metodik vositasiga aylanadi.

Tadqiqotda muhim ilmiy natija sifatida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy ta'minotlarning ta'limiy,

innovatsion, vizual va integratsion imkoniyatlaridan foydalanish orqali raqamli ta'limning shakllanish va rivojlanish bosqichlari aniqlashtirildi. Ushbu bosqichlar: boshlang'ich diagnostika, integratsiya, qabul qilish, amaliyotda qo'llash, optimallashtirish va barqaror rivojlanishdan iborat bo'lib, har biri fizika o'qituvchisi tayyorlov jarayonida dasturiy ta'minotning ratsional tanlovi va samarali integratsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, interaktiv dasturiy vositalar - vizualizatsiyalangan model, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar - fizika fanini o'qitishda nafaqat o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, balki bo'lajak o'qituvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, tahliliy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini ham beradi.

Tahlillarga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot makonidagi faoliyat sohasi ko'p hollarda raqamli ta'lim tushunchasi bilan ifodalanadi. Raqamli ta'lim foydalanuvchiga yo'naltirilgan, innovatsion va samarador o'quv muhiti bo'lib, u orqali ta'lim oluvchiga taqdim etilayotgan axborotlar, vositalar va xizmatlar sifat jihatdan yangicha yondashuv asosida shakllantiriladi.

Raqamli ta'limning asosi – bu o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonini soddalashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirishdir. Bunday yondashuvda, avvalo, zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari muhim o'rin tutadi. Dasturiy ta'minot orqali axborotlar katalogini shakllantirish, ularni samarali tarzda taqdim etish va o'quv jarayonini raqamli tarzda boshqarish imkoniyati vujudga keladi.

Raqamli ta'lim samaradorligini ta'minlovchi dasturiy ta'minotlar ta'limiy axborot resurslarini tizimli ravishda boshqarish, foydalanuvchi uchun qulay interfeyslar yaratish, axborotlarni tezkor yetkazib berish va ularni qayta ishlash imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, fizika fanining nazariy va eksperimental jihatlarini o'rgatishda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida raqamli ta'limning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, hamda bu bosqichlarda dasturiy vositalardan ratsional foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Raqamli ta'limning quyidagi bosqichlari ajratib ko'rsatildi: boshlang'ich o'zlashtirish, integratsiya, qabul qilish, amaliyotda qo'llash, optimallashtirish va barqarorlik. Har bir bosqichda o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijodkorlik va intellektual yondashuvning ahamiyati ortib boradi.

Raqamli ta'limni samarali tashkil etishda pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi dasturiy vositalar – taqdimotlar, test tizimlari, simulyatsiya asosidagi interaktiv materiallar, virtual laboratoriya muhitlari va masofaviy o'qitish platformalari — o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantiradi va ularning didaktik salohiyatini kengaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy muammolar va vazifalarni hal etishning dolzarbligi dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi hamda dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirish natijasida bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy

ta'minotdan foydalanish metodikasini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga joriy qilishga amaliy va uslubiy yordam beradi.

M.Mamarajabovning tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, tegishli o'quv materialiga kirishning cheklanganligi, texnik malakalarining yetarli emasligi tegishli raqamli kurs materiallariga kirish tartib-qoidalariga ta'sir qiladi. Uning tadqiqotlarida tegishli video yozuvlar, shuningdek, grafiklar va animatsiyalarni – talabalarga rag'batlantiruvchi o'quv materiali sifatida taqdim etishda yetarlicha tajribalar mavjud emasligi jiddiy pedagogik muammo sifatida talqin qilingan.

G.E. Karlibayevaning tadqiqot ishida, bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy-uslubiy tayyorgarligi pedagogik kuzatish, loyihalash, tadqiqotchilik, ilmiy tafakkur va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. U metodik tayyorgarlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishda raqamli ta'lim muhiti va dasturiy ta'minotlardan foydalanish fizika fanini o'qitishda ijodiy yondashuvni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash o'qituvchilarda fizika fani bo'yicha ijodiy-intellektual kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, respublikamizda fizika fanini o'qitishni takomillashtirish, talabalarda fizikaga oid ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalalari M.Jo'rayev, M.Jumaniyozova, P.Jalolova, H.Jo'raev, Yu.Mahmudov, B.Mirzaxmedov, K.Nasriddinov, K.Tursunmetov, X.Mahmudova, B.Nurullaev, G.Karlybaeva, S.Qahhorov, M.Qurbonov va O'.Sultonova tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Shu biln birga respublikamizda raqamli ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, F.M.Zakirova, D.N.Mamatov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. A.Yevchenko, Y.E.Nikulin, A.Avramova va boshqalarning ishlari dasturiy ta'minot asosida modellashtirish imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga bag'ishlangan.

Ta'lim xizmatlari jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, bu jarayon bo'lajak fizika o'qituvchilarini ta'limga jalb qilish, ularga taqdim etiladigan o'quv ma'lumotlari haqida aniq tushuncha berish orqali amalga oshiriladi. Dasturiy ta'minot vositalari ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida yordamchi vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Mazkur vositalar orqali ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari aniqlanadi, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy ta'minot vositalari ko'p qirrali ta'limiy imkoniyatlar yaratadi. Bo'lajak fizika o'qituvchilari bu vositalardan samarali foydalana olishi uchun ularning ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun o'quv topshiriqlarini bajarishda mustaqil fikrlash, emotsional va ijtimoiy yondashuvlar, hamkorlikda ishlash va o'zaro muloqot asosida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Dasturiy ta'minot vositalari asosida o'quv faoliyatini tashkil etish, o'qitishning faol va interfaol shakl hamda usullaridan foydalanish imkonini oshiradi. Bu esa sifat jihatidan yangi ta'lim muhitini shakllantirish, innovatsion metodikalar asosida dars berish va yangi o'quv ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mazkur vositalardan ratsional foydalanish orqali mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga yondashuv, umumiydan qismlarga va aksincha o'tish, mustaqil tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu esa fizika fanini o'qitishda didaktik samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, dasturiy ta'minot vositalarini o'quv jarayonida qo'llash ta'limning axborot bilan boyitilganligini, shaxsiy ta'lim traektoriyalarini yaratishni, ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishni (ta'lim natijalarini tahlil qilish, baholash, o'zaro interaktivlik) samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining "**Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy ta'minotdan foydalanishni takomillashtirish**" deb nomlangan ikkinchi bobida, bo'lajak fizika o'qituvchilarini dasturiy ta'minotdan foydalanishga o'rgatish jarayoni ularning ilmiy-tadqiqotga asoslangan, integrallashgan fikrlash, tizimli tahlil va metodik yondashuvlarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tadqiqotda ushbu jarayonning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, pedagogik va metodik jihatdan asoslanishi hamda zamonaviy o'qitish talablari asosida takomillashtirilishi zarurligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyasini shakllantirishda bir-biri bilan uzviy bog'liq tarkibiy tuzilmalar aniqlandi. Ushbu komponentlar o'quv jarayonining mazmuni va natijaviyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



**1-rasm. Dissertatsiya doirasida aniqlangan asosiy tarkibiy komponentlar**

Saytda yaratilgan fizika bo'limlari bo'yicha ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, mantiqiy testlar, virtual laboratoriyalar, mustaqil ish mavzulari, video darslar va taqdimotlarning majmuasi bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini individual yo'nalishda boshqarishiga, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishiga va ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi. Ushbu resurslar talabalarda tajribaviy tahlil qilish, mantiqiy fikrlash hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Platformalardan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Masalan, GeoGebra dasturi grafik modellashtirish imkoniyatlari bilan nazariy tushunchalarni vizual tarzda ochib beradi; PhET simulyatsiyalari molekulalar harakati va bosim, temperatura kabi parametrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni virtual tajribalar orqali idrok etishga yordam beradi; PowerPoint va Canva ta'limiy kontentni animatsiyalar, infografikalar orqali tushunarli ko'rinishda taqdim etish imkonini yaratadi. Tinkercad modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirsa, Audacity dasturi to'lqin jarayonlarini fanlararo integratsiya asosida tushuntirishda yordam beradi.

Bunday platformalardan foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan tubdan farq qiladi. Agar an'anaviy yondashuvda talaba ko'proq passiv tinglovchi sifatida ishtirok etsa, raqamli resurslardan foydalanilganda u faol ishtirokchi, tajriba va simulyatsiyani boshqaruvchi hamda natijani tahlil qiluvchi sub'ekt sifatida qatnashadi. Virtual laboratoriyalar tajribalarni xavfsiz muhitda qayta-qayta bajarish imkonini beradi, avtomatik testlar esa talabaga o'z bilimini darhol baholash imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nazariya, amaliyot va virtual modellashtirish integratsiyasini ta'minlab, talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki mustaqil tahlil qilish, tajribaviy tafakkur va innovatsion yondashuvni shakllantiradi. Natijada bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalari samarali rivojlanadi.

Dissertatsiya doirasida tanlangan ushbu dasturiy vositalar bo'lajak fizika o'qituvchilarining o'quv-metodik faoliyatlarini takomillashtirish, raqamli vositalardan innovatsion foydalanish, shaxsiy metodikasini shakllantirish, muammoni kompleks tahlil qilish va pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini oshirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim oluvchilarni jalb qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunday sharoitda ma'lumotlarni taqdim etish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi va o'quvchilarga raqobatbardosh ustunliklarni taqdim etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida interaktiv, ko'rgazmali, axborotni vizualizatsiya qilish vositalari – fizik fanning murakkab tushunchalarini o'zlashtirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy dasturiy ta'minot va raqamli platformalardan foydalanish, shu jumladan modellashtirish va simulyatsiyalar ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotda bo'lajak fizika o'qituvchilarini interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratish ko'nikmalariga o'rgatish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab

chiqilgan. Ushbu modelda ijtimoiy buyurtmaga mos holda maqsad va vazifalar belgilangan. Modelning metodologik blokida o'qituvchilarni interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan yondashuvlar, tamoyillar va bosqichlar ta'riflangan. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini o'qitishda tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslanilgan .


Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida ta'lim platformalari va zamonaviy texnologik vositalar bo'lajak fizika o'qituvchilariga o'rgatildi, ularga amaliy ko'rsatmalar berildi, shuningdek, interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishda foydalaniladigan dasturiy ta'minot bilan ishlash ko'nikmalari muntazam ravishda oshirildi. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv orqali o'qituvchilar o'zlashtirgan bilimlarning hayotiy va professional faoliyatlarida qanday qo'llanilishi bilan yaqindan tanishadilar va nazariy bilimlarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etadilar.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning dars jarayonida va interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishda faol ishtirokini rag'batlantiradi, shuningdek, nazariy bilimlarning amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi. Bu yondashuv yordamida talabalarga mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, o'zlari tayyorlagan axborot ta'lim resurslaridan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tadqiqot modeli metodologik blokida bo'lajak fizika o'qituvchilarini interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish jarayonida amal qilinadigan asosiy tamoyillar ham batafsil bayon etilgan.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarini interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish metodikasi ularning ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda shaxsga yo'naltirilganlik, faoliyatga yo'naltirilganlik va tizimli yondashuv tamoyillari asos qilib olinadi. O'quv jarayonining ustunlik tamoyili tarbiyaviy va rivojlantiruvchi o'qitishning didaktik qoidalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ta'lim oluvchining raqamli ta'lim muhitida o'z faoliyatiga diqqatni jamlashiga yo'naltiriladi. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili esa ta'lim jarayonining aniq belgilangan maqsadlariga erishishni ta'minlovchi raqamli texnologiyalar va vositalardan samarali foydalanishni talab qiladi.

Moslashuvchanlik tamoyili raqamli ta'lim sharoitlariga moslashishni, individual yondashuvni rivojlantirishni ta'minlaydi. Interaktivlik tamoyili esa o'quv jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasida turli shakllardagi faol ko'p tomonlama muloqotni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu muloqot o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni faol qatnashishga undaydi.

Amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyili o'qitish jarayonining hayot bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi, ta'lim mazmuni, texnologiyalari va usullarini jamiyatning dolzarb va istiqbolli talablariga moslashtirishni ko'zda tutadi. Ushbu tamoyil asosida o'quvchilar rivojlantiruvchi amaliy va nazariy topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning amaliy tajribalarini shakllantirishga xizmat qiladi.



**2-rasm. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish modeli**

Izchillik tamoyili tizimlilik va uzviylikka asoslangan an'anaviy didaktik qoidalarni o'zida mujassam etadi. Polimodallik (multimedialik) tamoyili esa raqamli ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalarning samarali qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarini interaktiv axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat: kognitiv bosqich, vizuallashtirish bosqichi, transformatsiyalash bosqichi. Tadqiqot natijalari har bir bosqichning imkoniyatlarini chuqur o'rganishni ta'minladi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan kognitiv-transformatsiyalash bosqichlarini funksional integratsiyalash

masalalari ham tahlil qilindi. Bu jarayonda har bir bosqich o'rtasidagi o'zaro aloqalar, bog'liqliklar hamda ularning funksiyalaridan kelib chiqib, bosqichlarni umumiy tizimga integratsiyalash va ularning umumiy jihatlarini tizimlashtirish amalga oshirildi.

